



Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivalida "MSITF-2025"
onlayn o'tkaziladigan "XAKERLIK USTASI" (CTF-turniri)
musobaqasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi

NIZOM

Davlatimiz sarhadlari dahlsizligini, halqimizning havfsizligini, tinch-totuv va farovon hayotini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini yuqori jangovar shay holatda saqlash Mudofaa vazirligi tizimida zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalarni ishlab chiqarish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, harbiy sohaga innovatsion g'oyalar hamda texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot, tajriba – konstruktorlik tadbirlarini samarali yo'lga qo'yish borasida jadal ishlar olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2025-yil 17-apreldagi 406-sonli buyrug'iga asosan o'tkazilayotgan "Mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalari festivali-2025" (bundan buyon matnda "MSITF-2025" amaliy ko'rgazmasi deb yuritiladi) amaliy ko'rgazmasi doirasidagi "Xakerlik ustasi" musobaqasini (keying o'rinlarda – "musobaqa" deb yuritiladi) tashkil etish va sifatli o'tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Musobaqa O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik markazi tomonidan o'rnatilgan qoidalarga ko'ra o'tkaziladi va hakamlar tomonidan baholanadi. Musobaqani o'tkazish uchun hakamlar tarkibi O'zbekiston Respublika Mudofa vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

1.2. Ushbu bellashuv turli jamoalar ishtirokida amalga oshiriladi.

1.3. Musobaqada ishtirok etish mutlaqo bepul.


1.4. Musobaqada faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qatnashishi mumkin.

1.5. Musobaqa jamoa tarkibida o'tkaziladi. Jamoa a'zolari soni 3 nafardan 5 nafargacha bo'lishi mumkin.

1.6. CTF Master musobaqasi to'liq Onlayn (Online) formatda o'tkaziladi.

1.7. Musobaqa 7 ta yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Veb ekspluatatsiya
2. Kriptografiya



3. Kriminalistika (OT tahlili)
 4. Revers muhandislik
 5. Tarmoq tahlili
 6. Stenografiya
- 1.8. Ishtirokchilar faqat rasmiy ro'yxatga olingan jamoalar tarkibida qatnashadilar.
- 1.9. Ishtirokchilar musobaqadagi ishtirokini amalga oshirishi uchun quyidagi <https://ctf.cyberkent.uz> platformasining tegishli bo'limidan ro'yxatdan o'tishlari zarur.
- 1.10. Nizom O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

2-bob. Musobaqaning maqsad va vazifalari

2.1. Musobaqaning asosiy maqsadi – kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislik bilimlarini oshirish, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, xavfsizlik masalalari va ularning hal qilinishi bo'yicha yoshlar orasida qiziqishni oshirish.

2.2. Musobaqa o'tkazishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

zaifliklarni aniqlash va ekspluatatsiya qilish (vulnerabilities exploitation) bo'yicha ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish;

kriptografiya, teskari tahlil (reverse engineering), veb-xavfsizlik, forensika (digital investigation) kabi yo'nalishlarda amaliy topshiriqlarni bajarish;

tizimli tahlil va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhit yaratish;

hujum va himoya strategiyalari ustida amaliy tajriba orttirish;

ishtirokchilarning etika va axloqiy normalar asosida kiberxavfsizlik sohasida faoliyat yuritish madaniyatini shakllantirish;

jamoaviy ishlash va rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

texnik bilimlar va zamonaviy kiberxavfsizlik vositalaridan foydalanish malakalarini mustahkamlash;

CTF musobaqasi natijalariga ko'ra, iste'dodli va iqtidorli ishtirokchilarni saralab olish va ularni yanada chuqurroq tayyorlash uchun maxsus dasturlarga jalb qilish.

3-bob. Musobaqani tashkil etish tartibi

3.1. Musobaqa MSITF–2025 rasmiy dasturi doirasida e'lon qilinadi.

3.2. Musobaqa joyi va vaqti Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi va va har yili boshlanishidan kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb sahifalar orqali ma'lum qilinadi.

3.3. Mudofaa vazirligi musobaqani o'tkazish bo'yicha barcha tashkiliy masalalarni hal etadi, hakamlar hay'ati tarkibini tuzadi va tasdiqlaydi.

3.4. Musobaqaning tantanali ochilish va yopilish tadbirlari mudofaa vazirining qaroriga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda o'tkazilishi mumkin.

3.5. Musobaqaning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash maqsadida musobaqa tashkilotchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda (defindustry.uz, akad.uz, t.me/akad_uz, youtube.com/akaduz, facebook.com/akad.uz) jonli onlayn efirga uzatiladi (striming).

3.6. Musobaqa boshlash va tugash vaqtlari ctf.cyberkent.uz platformasining tegishli havolasi (<https://ctf.cyberkent.uz/about>)da e'lon qilinadi.

4-bob. Musobaqa ishtirokchilari

4.1. Amaliy musobaqa ishtirok etmoqchi bo'lgan jamoa – barcha o'rta maktab o'quvchilari, kollej/akademik litsey o'quvchilari va Oliy ta'lim (oliy harbiy ta'lim) muassasalarida (bakalavr, aspirantura, magistratura, doktorantura) tahsil olayotgan va faoliyat yuritayotgan shaxslar, shuningdek bir mahallada istiqomat qilayotgan yoshlardan tuzilgan jamoa bo'lishi mumkin.

4.2. Musobaqa ishtirokchilari Maxsus portalda (defindustry.uz) ro'yxatdan o'tishlari lozim. Bunda, har bir kibersportchi yoki jamoa a'zosi shaxsan o'ziga tegishli ma'lumotlarni kiritgan holda ro'yxatdan o'tib, ushbu jarayonda ommaviy oferta shartlariga roziligini beradi.

4.3. Musobaqada 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar qatnashishi mumkin.

4.4. Musobaqa oldindan ro'yxatdan o'tgan jamoalar ishtirok etishi mumkin.

4.5. Musobaqada ishtirok etish uchun so'rovnoma jamoa sardori, o'zining jamoa a'zolarini belgilagan holda quyida keltirilgan shaklga muvofiq 25-may kuniga qadar https://t.me/msitf_2025 telegram manziliga jamoaning logotipini (.jpg/.png formatida ilova qilgan holda) yuboradi.

SO'ROVNOMA	
Jamoa nomi *	
Jamoa kattasi F.I.SH. *	
Telefon, elektron manzil *	
Tashkilot (muassasa) nomi, maktab raqami	
Musabaqa turi *	
Qatnashuvchilarning F.I.SH. va tug'ilgan yili.*	1. Jamoa sardori
(5 nafardan oshmasligi zarur)	2. Qatnashuvchi
	3.Qatnashuvchi
	4. Qatnashuvchi

4.6. Ishtirokchilar bir vaqtning o'zida turli guruhlarda qatnashishi qat'iyon taqiqlanadi.

5-bob. Musobaqa tashkilotchilari

5.1. Musobaqaga Mudofaa vazirligi **umumiy rahbarlik** qiladi.

5.2. Hakamlar hay'ati musobaqaga umumiy hakamlik qiladi, musobaqa shaffof va ochiq o'tkazilishini muvofiqlashtiradi hamda uning tarkibi Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Musobaqani o'tkazishda mudofa vazirligi davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

5.3. Musobaqaga amaliy rahbarlik qilish uchun uning olib borilishida malakali mutaxassislardan iborat vakillarning ishtirokini ta'minlaydi.

5.4. Musobaqani tashkil etish va o'tkazish shartlari va tartibini tartibga soluvchi, musobaqa ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi Nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash huquqiga ega.

5.5. Musobaqani yuqori sport, tashkiliy va ommaviy axborot vositalari saviyasida tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan, Nizomda bevosita nazarda tutilmagan, Nizom qoidalariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

5.6. Tashkilotchilar quyidagi huquqlarga ega:

ishtirokchilarni oldindan ogohlantirmasdan musobaqa ssenariylarini o'zgartirish;

a'zolari oldindan ogohlantirmasdan infratuzilma tarkibini o'zgartirish.

5.7. Hakamlar hay'atiga:

hakamlar xolislik, oshkoralik, demokratiya, natijalarni baholashda yagona yondashuvlar, obyektivlik va adolat tamoyillariga asosan o'z faoliyatini olib amalga oshiradi;

musobaqaning intizomiy, etika va texnik talablari yuzasidan ishtirokchilarni muntazam nazorat qiladi, shubhali xatti-harakatlar videoyozuv asosida tekshiriladi va kerakli hollarda ishtirokchilar chetlashtiriladi;

hakamlar jamoasining ishiga aralashadigan, hakamlardan norozilik bilan bog'liq axloqsiz xatti-harakatlarni ko'rsatadigan jamoaga (jamoat vakiliga) eslatma, ogohlantirish yoki diskvalifikatsiya e'lon qilinishi mumkin.

musobaqaning yakuni bo'yicha ha'amlar hay'ati tomonidan bayonnoma tuziladi va Mudofaa vazirligi rahbariyatiga taqdim qilinadi.

6-bob. Musobaqani o'tkazilish shartlari

6.1. Ishtirokchilar 1.8-bandda keltirilgan yo'nalishlarga tegishli bo'lgan topshiriqlarni jamoa tarkibida bajarishlari zarur.

6.2. Har bir topshiriqda yashirin "bayroq" (Capture the Flag) mavjud bo'lib, ishtirokchilar "bayroq"larni topishlari va platformaga tekshirish uchun kiritishlari lozim bo'ladi.

6.3. Ishtirokchilar tomonidan kiritilgan “bayroq” platformadagi “bayroq” bilan mos tushganda to‘g‘ri deb topiladi.

6.4. Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko‘ra turli ko‘rinishda baholanadi. Topshiriq uchun beriladigan ballar har bir topshiriqda yozilgan bo‘ladi.

6.5. Jamoalarning topshiriqlarini bajarishdagi natijalari va yig‘ilgan ballarining monitoringi onlayn (online) ko‘rish imkoniyati yaratiladi.

6.6. Topshiriq bir jamoa tomonidan to‘g‘ri bajarilgan taqdirda, ikkinchi jamoa uchun 10 ball qiymatga pasayadi (Masalan: 1-jamoa 1-topshiriqni to‘g‘ri bajarsa 200 ball, undan keyin 2-jamoa 1-topshiriqni to‘g‘ri bajarsa 190 ball beriladi).

6.7. Topshiriqning murakkablik darajasiga ko‘ra maslahat (hint)lar bo‘lishi mumkin. Maslahatlar bepul yoki ball (point) evaziga bo‘lishi mumkin. (Masalan: jamoa 3-topshiriqni bajarish uchun qiynalayotgan bo‘lsa maslahat(hint) bo‘limidan bepul yoki 10 ball evaziga maslahat olishlari mumkin)

6.8. Musobaqaga har bir ishtirokchi o‘zining shaxsiy kompyuter vositalari bilan ishtirok etishi mumkin.

6.9. Ishtirokchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

hakamlar hay‘ati serverlariga va avtomatlashtirilgan xizmatlarni qo‘llab-quvvatlash hamda yechimlarni tekshirish tizimga hujum qilish;

asossiz katta miqdordagi trafikni yaratish;

jamoalar o‘rtasida “bayroq”larni ulashish mumkin emas, “bayroq”larni almashish yoki nashr qilish qat’iyan man etiladi;

“Bayroq”larni qabul qilish tizimining zaifliklaridan har qanday maqsadda foydalanish; xizmatni rad etish (DoS) hujumlari mumkin emas: CTF platformasining ish faoliyatini yomonlashtirishga ataylab urinish;

bir nechta akkauntidan foydalanish;

avtomatlashtirilgan skanerlashdan foydalanish;

belgilanganlardan boshqa har qanday mashinaga hujum qilish;

hisob jadvalini o‘zgartirish;

boshqa jamoalarning “bayroq” topishiga qasddan to‘sqinlik qilish.

Ushbu qoidalarni buzgan har qanday ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi va kelgusi tadbirlarda qatnashishi taqiqlanishi mumkin.

6.10. Ishtirokchilar axloq kodeksiga rioya qilishlari kerak. Qoidalarni buzilgan jamoani tashkilotchi diskvalifikatsiya qilish huquqni o‘zida saqlab qoladi.

6.11 Musobaqa tugagandan so‘ng apellyatsiyalar qabul qilinmaydi.

7-bob. Baholash mezonlari va mukofotlash tartibi

7.1. Musobaqa jarayoni onlayn (online) bo‘lib o‘tishi munosabati bilan musobaqa natijalari ctf.cyberkent.uz platformasida onlayn(online) tartibda ko‘rsatib boriladi.

7.2. Musobaqa davomida eng yuqori ball olgan jamoa g‘olib deb topiladi. Musobaqa sovrindorlari shaxsini tasdiqlash uchun jamoa a‘zolari shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar va platformaga kirish ma’lumotlarni taqdim etishi lozim bo‘ladi.

7.3. Musobaqa sovrindorlarni taqdirlash marosimi joriy yilning 31-may kuni “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasida bo‘lib o‘tadi.

7.4. Musobaqa sovrindorlarni taqdirlash marosimi, manzili, sanasi hakamlar (tashkilotchilar) tomonidan e‘lon qilinadi.

7.5. Musobaqa yakunida eng yuqori ball olgan 3 ta jamoa g‘olib deb topiladi.

Sovrindorlar tashkiliy qo‘mita tomonidan quyidagi tartibda mukofotlanadi: 1-o‘rin, 2-o‘rin, 3-o‘rin – pul yoki qimmatbaho sovg‘alar beriladi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

Tashkilotchi tomon bir tomonlama ushbu musobaqaga o‘zgartirish, qo‘shimcha kiritish huquqiga ega. Qoidalarining amaldagi tahriri veb saytda chop etilgani hisoblanadi. Ishtirokchilar o‘zgarishlar uchun veb saytni muntazam ravishda kuzatib borishlari shart.

Mas’uliyat:

Tashkilotchi ishtirokchilarning apparat yoki dasturiy ta’minotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Baholash:

Dinamik ko‘rinishda, savollarning murakkabligiga qarab belgilanadi va avtomatik ravishda hisoblanadi. Bir xil ball yig‘gan ishtirokchilar topshiriqni bajarish vaqti bo‘yicha tartiblanadi. Ishtirokchi jamoalar jarayonni onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratiladi